

## **2012, 2013 va 2014 yillarda oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'naliishlariga talabalikka qabuli uchun o'tkazilgan test sinovlarida abiturientlar soni, tanlov va o'rtacha ballar hamda abiturentlarning to'g'ri javoblari samaradorligiga oid tahliliy ma'lumotlar**

Eng qobiliyatli va bilimli yoshlarni oliy ta'lim muassasalariga qabul qilinishi yuqori malakali kadrlar tayyorlash uchun muhim zamin yaratadi. Mamlakatimizda oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishda 1992 yildan buyon test usuli qo'llanilib kelinmoqda.

Test usuli imtihon o'tkazishning boshqa shakllari orasida o'zining ko'plab qulayliklari va ijobiy tomonlariga ega. Xususan, ta'lim muassasalariga test usulida o'qishga qabul qilish ijtimoiyadolat va xolislikni ta'minlash bilan birga ko'p sondagi imtihon topshiruvchilarning natijalarini judda qisqa muddatda tekshirish va hisoblash imkonini beradi.

Oliy ta'lim muassasalariga kirish uchun hujjat topshirgan abiturientlar soni yildan-yilga ortib bormoqda. Masalan, 2012 yilda tushgan arizalar soni 432 mingdan ziyod bo'lib, respublika bo'yicha o'rtacha tanlov 7,6 ni tashkil etgan. 2013 yilda esa oliy ta'lim muassasalariga abiturientlardan jami 480,4 mingdan ziyod ariza qabul qilinib, o'rtacha tanlov 8,5 ni tashkil etgan.

2014 yilda 57 ta oliy ta'lim muassasasining (shuningdek, ularning 11 ta filiali, 2 ta fakulteti, 1 ta bo'limida) kunduzgi va maxsus sirtqi bo'limlariga tushgan jami arizalar soni 543,1 mingdan ziyod bo'lib, bir o'ringa o'rtacha tanlov 9,4 ni tashkil etdi.

Abiturentlar sonining sezilarli darajada ortib borishi yoshlarmizning oliy ta'lim olishga intilishlari ortib borayotganligidan dalolat beradi. Bu esa mamlakatimizda yoshlarning bilim oishlari, yuqori malakali mutaxassis bo'lib yetishishlari uchun barcha sharoit va imkoniyatlar yaratilganligi natijasidir.

Ta'kidlash joizki, test sinovlarini o'tkazish darajasi, sifati va xolisligini oshirish, test texnologiyalarini rivojlantirish va test topshiriqlari mazmuni va saviyasini yanada takomillashtirish Davlat test markazining asosiy vazifalaridan biri bo'lib kelgan.

O'z navbatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 30 apreldagi "Respublika oliy ta'lim muassasalariga qabul qilish tartibini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qarori test tizimini yanada takomillashtirishga turki bo'ldi.

Mazkur qaror bilan 2014/2015 o'quv yili uchun oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'naliishlariga talabalikka qabul qilish uchun o'tkaziladigan test sinovlariga bir qator yangiliklar kiritildi. Jumladan, matematika fani bo'yicha test savollariga informatika va axborot texnologiyalariga doir savol hamda topshiriqlarining kiritilishi, test sinovi topshiriladigan fanlar ro'yxatini qayta ko'rib chiqilishi hamda bir qator ta'lim yo'naliishlarida chet tillar bo'yicha test sinovlari joriy etilishi test tizimiga kiritilgan muhim yangiliklardir.

Shu bilan birga, 2014 yilda oliy ta'lim muassasalarining bakalavriatiga o'qishga kiradigan abiturientlar uchun test sinovlari o'tkaziladigan fanlardan test topshiriqlari qayta ko'rib chiqildi. Bunda abiturentlarning mantiqiy fikrlash qobiliyati, dunyoqarashi, test sinovlari o'tkaziladigan fanlarni qanchalik chuqr bilishini aniqlashga qaratilgan test savollarini ko'paytirishga alohida e'tibor qaratildi. Natijada test sinovlari o'tkaziladigan barcha fanlardan davlat ta'lim standartlari doirasida zamонавиyl talablarga mos, oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishni istagan yoshlarning bilim darajasini xolisona baholash va tanlash imkonini beradigan yagona test savollari bazasi shakllantirildi.

Bu yilgi test sinovlarini ham adolatli va yuqori saviyada o'tkazilishini ta'minlash uchun Davlat test markazida tegishli tayyorgarlik ishlari amalga oshirildi. Jumladan,

Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi va O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi tomonidan tavsija etilgan 150 nafardan ortiq ekspertlar test sinovi o'tkaziladigan barcha fanlardan test topshiriqlarini tuzish va ekspertiza qilish uchun jalb etildi. Barcha bakalavriat ta'lim yo'naliishlari bo'yicha 548, 6 mingdan ziyod savollar kitobi tayyorlandi.

Test sinovlarini o'tkazishda DTM ta'lim muassasa, bino va qavat bo'yicha vakillari, auditori rahbari va kuzatuvchilari sifatida jalb etilgan qariyib 55 ming nafer umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalarini professor-o'qituvchilari uchun test sinovlarini o'tkazish tartib-qoidalari bo'yicha o'quv seminarlari tashkil etildi. Test sinovlarini bir vaqtida o'tkazishni ta'minlash uchun zarur auditoriyalar tayyorlandi.

Test sinovlarini o'tkazish tartib-qoidalari, unga kiritilgan yangiliklar haqida ommaviy-axborot vositalarida ham ko'plab tushuntirish ishlari olib borildi.

Test sinovlarini tashkil etish va o'tkazish Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 18 iyundagi 118-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarining bakalavriatiga talabalarni qabul qilish tartibi to'g'risida Nizom", O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2011 yil 8 iyulda 2242-sun bilan ro'yxatdan o'tkazilgan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarining bakalavriatiga talabalarni qabul qilishda test sinovlarni o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom" asosida amalga oshirildi.

Joriy yilning 1 avgust kuni respublikamizdagi 57 ta oliy ta'lim muassasasi, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarining 11 ta filiali, 2 ta fakulteti va 1 bo'limida test sinovlari bir vaqtida o'tkazildi. Test sinovlari 713 ta binodagi 2507 ta qavat va 16133 ta auditoriyada bo'lib o'tdi. Test materiallari barcha oliy ta'lim muassasalarining test o'tkaziladigan binolariga o'z vaqtida yetkazildi va test sinovlari tugaganidan so'ng shu kunning o'zida Davlat test markaziga qaytarib topshirildi.

Test sinovlarida jami 542872 nafer abituriyent ishtirok etdi. Test sinovlarini joylarda sifatlari va adolatli o'tkazish uchun 3274 nafer DTM vakillari, 51728 nafer auditoriya rahbari va kuzatuvchilari jalb etildi.

Test sinovining natijalari 16 avgust kuni oliy ta'lim muassasalarini qabul komissiyalari tomonidan e'lon qilindi. Bundan tashqari, abituriyentlar uchun o'z natijalarini internetda Davlat test markazining [www.dtm.uz](http://www.dtm.uz) sayti va mobil aloqanining SMS xizmati orqali bilib olish imkoniyati yaratildi.

Oliy ta'lim muassasalaiga qabul qilish barcha o'qishga kiruvchilar uchun (davlat grantlari bo'yicha ham, to'lov-kontrakt bo'yicha ham) tenghuquqlilik asosida va yagona qabul qoidalari bo'yicha amalga oshirildi. Bunda test sinovlarida eng yuqori ball to'plagan abituriyentlarning davlat grantlari bo'yicha birinchi navbatda o'qishga qabul qilinishi ta'minlandi; qolgan abituriyentlar esa test ballari reytingi asosida, belgilangan qabul kvotasi doirasida to'lov-kontrakt bo'yicha o'qishga kirish huquqiga ega bo'ldilar.

2014 yil test sinovlari natijalariga ko'ra oliy ta'lim muassasalariga qabul qilish uchun belgilangan qabul kvotasiga muvofiq jami 58022 nafer (shundan 19200 nafari (33,1 foiz) davlat grantlari bo'yicha, 38822 nafari (66,9 foiz) to'lov-kontrakt asosida) abituriyent talabalikka tavsija etildi.

Ta'kidlash joizki, Davlat test markazida test sinovlarining natijalarini tahlil qilish va uni oldingi yillardagi natijalar bilan taqqoslab borilishiga alohida ahamiyat berilmoqda.

Quyida 2014/2015 o'quv yili uchun bakalavriat yo'naliishlariga talabalikka qabul qilish uchun o'tkazilgan test sinovlari natijalari tahlili keltirilgan.

Abiturentlarning tayyorgarlik darjasini o'rtacha, o'tish va eng yuqori ballar hamda to'g'ri javoblar samaradorligi kabi ko'rsatkichlar bilan belgilanadi.

Respublika bo'yicha o'rtacha o'tish bali 2013 yilda davlat grantlari bo'yicha 149,9 ball, to'lov-kontrakt bo'yicha 127,5 balni tashkil etgan. 2014 yilda o'rtacha o'tish bali davlat granti bo'yicha 150,6 ball va to'lov-kontrakt bo'yicha 130,2 balni tashkil etdi. Ko'rinish turibdiki, 2014 yilda o'rtacha o'tish bali 2013 yilga nisbatan davlat grantlari bo'yicha 0,7 balga, to'lov-kontrakt bo'yicha esa 2,7 balga ko'tarilgan.

Abiturentlarning tayyorgarlik sifati o'rtacha ballar bilan baholanadi. **1-jadvalda** hududlar va ta'lim muassasalari turlari bo'yicha 2012, 2013 va 2014 yillarda o'tkazilgan test sinovlarida abiturentlar o'rtacha ballarining solishtirma jadvali keltirilgan. Jadvaldan ko'rinish turibdiki, 2014 yilda Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Navoiy, Samarcand, Sirdaryo viloyatlari va Toshkent shahrida 2013 yilga nisbatan qisman oshgan.

O'rtacha ballarning ta'lim muassasalari turlari bo'yicha taqsimotiga ko'ra akademik litseylar bitiruvchilarining o'rtacha ballari eng yuqori ekanligi ko'rinish turibdi. Bu esa, akademik liitseylarda o'quvchilarga oliv ta'lim muassasalariga o'qishga kirishlarini ta'minlash uchun maqsadli ta'lim berilayotganligining dalilidir.

Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarining o'rtacha ballari oxirgi uch yilda Buxoro, Navoiy, Samarcand, Xorazm viloyatlarida va Toshkent shahrida yuqori bo'lsa, Sirdaryo va Andijon viloyatlarida nisbatan past bo'lganligi kuzatilmoida. Umumiy o'rta maktab bitiruvchilarining o'rtacha ballari Farg'ona, Qashqadaryo, Buxoro, Xorazm va Samarcand viloyatlarida yuqori bo'lsa, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Sirdaryo viloyatida nisbatan past bo'lgan.

Test sinovlaridagi to'g'ri javoblar samaradorligi abiturentlar bilim darajasining sifat ko'rsatkichidir. **2-jadvalda** hududlar va ta'lim muassasalari turlari kesimida 2012, 2013 va 2014 yillarda o'tkazilgan test sinovlarida abiturentlar to'g'ri javoblar samaradorligining solishtirma jadvali berilgan.

Ushbu jadvaldan ko'rinish turibdiki, akademik litseylar bitiruvchilarining to'g'ri javoblar samaradorligi kasb-hunar kollejlari va umumiy o'rta maktab bitiruvchilariga nisbatan sezilarli ravishda yuqori.

Akademik litseylar bitiruvchilarining to'g'ri javoblar samaradorligi 2014 yilda Qoraqalpog'iston Respublikasi, Qashqadaryo, Navoiy, Samarcand, Sirdaryo viloyatlari va Toshkent shahrida 2013 yilga nisbatan oshgan, Toshkent viloyatida esa o'zgarmagan.

Oxirgi uch yilda to'g'ri javoblar samaradorligi bo'yicha Toshkent shahri, Buxoro, Navoiy va Samarcand viloyatlardagi akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari bitiruvchilari nisbatan yuqori natijaga erishganlar.

**3-jadvalda** hududlar va ta'lim muassasalari turlari kesimida 2014 yilda oliv ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'naliishlariga talabalikka qabul qilish uchun o'tkazilgan test sinovlarida abiturentlar o'rtacha ballari va talabalikka tavsiya etilganlar soni va foizi xaqida ma'lumot keltirilgan.

Jadvaldan ko'rinish turibdiki, akademik litsey bitiruvchilarining talabalikka tavsiya etilganlari foizi umumiy o'rta maktab va kasb-hunar kollejlari bitiruvchilariga nisbatan yuqori bo'lgan.

Hududlar kesimida talabalikka tavsiya etilganlari foizi akademik litsey va kasb-hunar kollejlari bitiruvchilari bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Navoiy va Xorazm viloyatlarida, umumiy o'rta maktab bitiruvchilari bo'yicha Qashqadaryo, Buxoro va Samarcand viloyatlarida yuqori bo'lsa, barcha turdag'i ta'lim muassasalari bo'yicha Sirdaryo va Andijon viloyatlarida nisbatan past bo'lganligi kuzatiladi.

Oliy ta'lim muassasalariga eng qobiliyatli yoshlarni sifatli tanlab olishning muhim omillaridan biri ta'lim muassasalari va ta'lim yo'nalishlari bo'yicha tanlov hisoblanadi. Tanlov ko'rsatkichi mutaxassislikning afzalligi, ustuvorligini, oliy ta'lim muassasasining esa obru-nufuzini belgilab beradi. Shu bilan birga ta'lim sohalari bo'yicha tanlov ko'rsatkichining taqsimoti umumiy o'rta maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda oliy ta'lim muassasalarida yoshlarni kasbga yo'naltirish bo'yicha olib borilgan ishlarning natijasini ham ko'rsatadi.